

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK
VA BIOTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**60310100 - "IQTISODIYOT (QISHLOQ XO'JALIGIDA)" TA'LIM
YO'NALISHINI 2025-2026 O'QUV YILI BITIRUVCHILARI UCHUN
"IXTISOSLIK" FANLARIDAN DAVLAT ATTESTATSIYASI
SAVOLLARI**

SAMARQAND-2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK
VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

**O'quv ishlari bo'yicha prorektor,
professor** **A.A.Elmurodov**

2025 yil



**60310100 - “IQTISODIYOT (QISHLOQ XO‘JALIGIDA)” TA'LIM
YO‘NALISHINI 2025-2026 O‘QUV YILI BITIRUVCHILARI UCHUN
“IXTISOSLIK” FANLARIDAN DAVLAT ATTESTATSIYASI
SAVOLLARI**

SAMARQAND-2025

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK
VA BIOTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**IQTISODIYOT FAKULTETI KENGASHINING
№ 4 YIG'ILISHI BAYONNOMASIDAN
KO'CHIRMA**

27.11.2025-yil

Samarqand shahri

Qatnashganlar: Kengash a'zosidan 19 kishi
A'zoldan tashqari 2 kishi

KUN TARTIBI

5.1. Har xil masalalar.

“Iqtisodiyot” fakulteti 60310100-“Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida)” va 60410100-“Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)” ta'lim yo'nalishlari 4-bosqich bitiruvchilari uchun “Ixtisoslik” fanlaridan Davlat attestatsiyasi savollarini tasdiqlash.

Eshitildi: Kun tartibidagi har xil masalalar yuzasidan Kengash raisi A.Alikulov so'zga chiqib, 2025-2026-o'quv yilida fakultetning bitiruvchi kurs talabalari uchun “Ixtisoslik” fanlaridan o'tkaziladigan Davlat attestatsiyasini yuqori saviyada o'tkazish uchun mutaxassislik fanlaridan har bir ta'lim yo'nalishi uchun tuzilgan 300 tadan savollarni tekshirib tasdiqlab berishlarini kengash a'zolaridan so'radi.

U.Eshmuradov: Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasida mudiri - Ixtisoslik fanlaridan savollar yuqori saviyada tuzilgan va bitiruvchi bosqich talabalarining 4 yil davomida o'qigan fanlarini to'liq qamrab olgan, xususan Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasida bitiruvchi kurslarga 9 ta fan o'qitiladi, xar bir fan bo'yicha savollar berilgan bo'lib har bitta savol ustida mutaxassislar alohida ish olib borishgan.

N.Rajabov: Iqtisodiyot va menejment kafedrasida mudiri - Iqtisodiyot va menejment kafedrasida bitiruvchi kurslarga 7 ta fan o'qitiladi, xususan, “Ixtisoslik” fanlaridan savollar yuqori saviyada tuzilgan va bitiruvchi bosqich talabalarining 4 yil davomida o'qigan fanlarini to'liq qamrab olgan hamda xar bir fan bo'yicha savollar berilgan bo'lib har bitta savol ustida mutaxassislar alohida ish olib borishgan.

60310100-“Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida)” va 60410100-“Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)” ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilari uchun “Ixtisoslik” fanlaridan Davlat attestatsiyasi o'tkazish uchun tuzilgan savollarning barchasi ixtisoslik fanlarini qamrab olganligini inobatga olgan holda kengash a'zolaridan tasdiqlashini so'radi.

Ushbu masala yuzasidan Kengashda qaror qabul qilindi.

QAROR:

“Iqtisodiyot” fakulteti 60310100-“Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida)” va 60410100-“Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)” ta'lim yo'nalishlari 4-bosqich bitiruvchilari uchun “Ixtisoslik” fanlaridan Davlat attestatsiyasi o'tkazish uchun tuzilgan savollarini tasdiqlash uchun universitet Kengashidan so'ralsin.

Qaror bir ovozdan ma'qullandi.

Kengash raisi

Kengash kotibi



A.I.Alikulov

Sh.Yuldashev

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK
VA BIOTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**IQTISODIYOT FAKULTETI O'QUV-USLUBIY KENGASHINING
№ 3 YIG'ILISHI BAYONNOMASIDAN
KO'CHIRMA**

26.11.2025-yil

Samarqand shahri

Qatnashdilar: Uslubiy kengash raisi
I.Salamov va 8 nafar a'zolari

KUN TARTIBI

2.1. Har xil masalalar.

“Iqtisodiyot” fakulteti 60310100-“Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida)” va 60410100-“Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)” ta'lim yo'nalishlari 2025-2026 o'quv yili bitiruvchilari uchun “Ixtisoslik” fanlaridan Davlat attestatsiyasi savollarini tasdiqlash to'g'risida.

Davlat attestatsiyasi savollari bilan o'quv-uslubiy kengash a'zolari batafsil tanishib chiqishdi.

Muhokama uchun so'zga chiqdilar: Uslubiy kengash a'zosi iqtisodiyot fanlari nomzodi, katta o'qituvchi – R.Kudratov: Hurmatli o'quv-uslubiy kengash a'zolari, 2025-2026 o'quv yilida bitiruvchi kurs talabarlari uchun “Ixtisoslik” fanlaridan o'tkaziladigan Davlat attestatsiyasi uchun mutaxassislik fanlaridan tuzilgan 300 ta savollar fan dasturlaridagi mavzular mohiyatini qamrab olgan, hozirgi kundagi iqtisodiyot bo'yicha davlat siyosatini, me'yoriy hujjatlardagi yangiliklarini o'zida aks ettirgan. Shuning ushbu savollarga javob berish uchun bitiruvchilardan ham nazariy, ham amaliy bilimlarga ega bo'lishini talab qiladi. Tuzilgan savollar fanlar o'rtasida ular uchun o'quv rejada ajratilgan soatlarga mos ravishda tuzib chiqilgan. Savollar to'g'ri tuzilganligini inobatga olib ma'qullayman va sizlarni ham uni tasdiqlashga tavsiya etaman.

So'zga chiqdi: Uslubiy kengash a'zosi, i.f.d., professor A.I.Alikulov – “Ixtisoslik” fanlaridan savollar yuqori saviyada tuzilgan va bitiruvchi bosqich talabalarining 4 yil davomida o'qigan fanlarini to'liq qamrab olgan hamda talabalarimiz tomonidan to'liq o'zlashtirilgan.

O'quv-uslubiy kengash qaror qiladi:

“Iqtisodiyot” fakulteti 60310100-“Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida)” va 60410100-“Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)” ta'lim yo'nalishlari 2025-2026 o'quv yili bitiruvchilari uchun “Ixtisoslik” fanlaridan Davlat attestatsiyasi o'tkazish uchun tuzilgan savollarni tasdiqlash uchun universitet Markaziy o'quv-uslubiy kengashiga taqdim etilsin.

O'quv-uslubiy kengash raisi, dotsent

Kengash kotibi



I.Salamov


Sh.Yuldashev

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti 60310100-“Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligida)” ta‘lim yo‘nalishining 2025-2026 o‘quv yili bitiruvchilari uchun “Ixtisoslik” fanlaridan Davlat attestatsiyasi savollari

№	O‘quv rejadagi fanlar nomi	Savollar
1.09	Iqtisodiyot nazariyasi	1-49
1.12	Makroiqtisodiyot	50-96
1.16	Marketing	97-123
1.19	Iqtisodiy tahlil	124-167
1.21	Iqtisodiy xavfsizlik	168-214
1.24	Agrologistika	215-250
1.25	Innovatsion iqtisodiyot	251-277
1.28	Agrosanoat tarmoqlari iqtisodiyoti	278-300

Tuzuvchilar:

1. Salamov I – i.f.n, dotsent.
2. Azizqulov B.X – dotsent.
3. Kudratov R – i.f.n, katta o‘qituvchi.
4. Eshmuradov U.T- i.f.f.d. (PhD), katta o‘qituvchi
5. Nazarova M. – katta o‘qituvchi.
6. Xudoyberdiyeva M.U – assistent.



Taqrizchilar:

K.J.Mirzayev – Samarqand iqtisodiyot va servis institute “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini mudiri, i.f.d.

I.Salamov – “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasini dotsenti, i.f.n.

“Ixtisoslik” fanlaridan Davlat attestatsiyasi savollari “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasining 2025-yil 25-noyabrdagi 4-son yig‘ilishida muhokama qilingan va ma‘qullangan.


Iqtisodiyot va menejment
kafedrasini mudiri v.b.



N.A.Rajabov

“Ixtisoslik” fanlaridan Davlat attestatsiyasi savollari “Iqtisodiyot” fakultetining 2025-yil 27-noyabrdagi 4-son yig‘ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

Iqtisodiyot fakulteti dekani, professor



A.I.Alikulov

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti 60310100 – “Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligida)” ta‘lim yo‘nalishi bitiruvchilari uchun “Mutaxassislik fanlari”dan tayyorlangan yakuniy davlat attestatsiyasi savollariga

TAQRIZ

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining 60310100 “Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligida)” ta‘lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga muvofiq mutaxassislik fanlariga “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Mikroiqtisodiyot”, “Marketing”, “Iqtisodiy tahlil”, “Iqtisodiy xavfsizlik”, “Agrologistika”, “Innovatsion iqtisodiyot”, “Agrosanoat tarmoqlari iqtisodiyoti” kabi fanlar kiradi, ya‘ni ushbu DTS va o‘quv rejasiga mos fanlar sifatida mutaxassislikni shakllantiruvchi kasbiy va umumkasbiy fanlar sarasiga kiradi. Bitiruvchi talabada ushbu fanlar bo‘yicha nazariy hamda amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish bilan bir qatorda har bir savol talabaning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini baholashga xizmat qilishi, tayyorlanayotgan mutaxassislarini o‘qishni tugatgandan so‘ng, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatish jarayonida bevosita ishga kirishib ketishi va o‘z vazifalarini muvoffaqiyatli bajarishga omil bo‘ladi. Shuning uchun, davlat yakuniy attestatsiya savollarini malakali tuzish, fanlarning dasturidagi barcha mavzularni qamrab olishi muhim ahamiyatga ega.

Mutaxassislik fanlaridan yakuniy davlat attestatsiyasi uchun tayyorlangan savollar fan dasturlaridagi mavzular mohiyatini qamrab olgan bo‘lib, Davlat ta‘lim standartlari, o‘quv dasturlari va mutaxassislik kompetensiyalariga tayangan holda ishlab chiqilgani tahsinga sazovor. Savollarni tayyorlashda aniqlik, ravshanlik, mazmuniy to‘liqlik, ilmiylik tamoyillariga e‘tibor qaratilgan bo‘lib, bu YDA jarayonida talabalar bilimini xolis va adolatli baholashga xizmat qilish bilan bir qatorda hozirgi kundagi qishloq xo‘jaligi tarmoqlari iqtisodiyoti bo‘yicha davlat siyosatini, me‘yoriy hujjatlardagi yangiliklarini o‘zida aks ettirgan. Shuning uchun ushbu savollarga javob berish bitiruvchilardan ham nazariy, ham amaliy bilimlarga ega bo‘lishini talab qiladi.

Umuman olganda, ushbu savollar real vaziyatlar, amaliy topshiriqlar, ishlab chiqarish jarayonlari, loyihalar, holatlarni tahlil qilishga yo‘naltirilganligi, shuningdek 60310100 –“Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligida)” ta‘lim yo‘nalishi bitiruvchilari uchun Mutaxassislik fanlaridan tuzilgan ushbu savollar asosida yakuniy davlat attestatsiyasini o‘tkazishda foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblayman.



SamISI “Raqamli iqtisodiyot”
SamISI
kafedrası mudiri, i.f.d, professor
XODIMLAR BO‘LIMI BOSHIG‘I

K.J. Mirzaev

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti 60310100 – “Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligida)” ta‘lim yo‘nalishi bitiruvchilari uchun “Mutaxassislik fanlari”dan tayyorlangan yakuniy davlat attestatsiyasi savollariga

TAQRIZ

“Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligida)” ta‘lim yo‘nalishining o‘quv rejasiga asosan mutaxassislik fanlariga “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Mikroiqtisodiyot”, “Marketing”, “Iqtisodiy tahlil”, “Iqtisodiy xavfsizlik”, “Agrologistika”, “Innovatsion iqtisodiyot”, “Agrosanoat tarmoqlari iqtisodiyoti” kabi fanlar kiradi. Yakuniy davlat attestatsiyasini sifatli o‘tkazilishida unda tuzilgan savollarning fan dasturlariga to‘g‘ri kelishi hamda ularni qamrab olishi muhim ahamiyatga ega.

Bitiruvchi talabalarda ushbu mutaxassislik fanlari bo‘yicha nazariy hamda amaliy ko‘nikmalar bo‘lishi, tayyorlanayotgan bakalavrlarni o‘qishni tugatgandan so‘ng ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatish jarayonida bevosita ishga kirishib ketishi va o‘z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishlariga omil bo‘ladi. Shuning uchun ham davlat yakuniy attestatsiyasi savollarini sifatli tuzish, fanlarning dasturidagi barcha mavzularni qamrab olishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mutaxassislik fanlaridan yakuniy davlat attestatsiyasi uchun tayyorlangan savollar fan dasturlaridagi mavzular mohiyatini qamrab olgan. Shu bilan birga hozirgi kundagi qishloq xo‘jaligi tarmoqlari iqtisodiyoti bo‘yicha davlat siyosatini, huquqiy me‘yoriy hujjatlaridagi yangiliklarini o‘zida aks ettirgan. Shuning uchun ushbu savollarga javob berish, bitiruvchilardan ham nazariy, ham amaliy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlarini talab qiladi. Tuzilgan savollar fanlar o‘rtasida ular uchun o‘quv rejada ajratilgan soatlarga mos ravishda tuzib chiqilgan.

Umuman olganda, ushbu tuzilgan savollar asosida 60310100 – “Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligida)” ta‘lim yo‘nalishi bitiruvchilari uchun “Mutaxassislik fanlari”dan yakuniy davlat attestatsiyasi o‘tkazishda foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

**“Iqtisodiyot va menejment”
kafedrasi dotsenti, i.f.n.**



I.Salamov ning imzosini
TASDIQLAYMAN
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Xodimlar bo‘limi bo‘g‘ini

**60310100-“Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligida)” ta’lim yo‘nalishining 2025-2026
o‘quv yili bitiruvchilari uchun “Ixtisoslik” fanlaridan**

Davlat attestatsiyasi savollari

Iqtisodiyot nazariyasi

1. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi.
2. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va vazifalari.
3. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar.
4. Iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o‘rganish usullari
5. Ijtimoiy-iqtisodiyot taraqqiyot bosqichlarini bilishga turli xil yondashuvlar
6. Iqtisodiy tizim tushunchasi va tizim modellari
7. Bozor iqtisodiyoti sharoitida doimiy muammolarni hal qilish va resurslardan samarali foydalanish yo‘llari.
8. Mulkchilik munosabatlarining iqtisodiy mazmuni
9. Tovar va uning xususiyatlari.
10. Pulning kelib chiqishi va mazmuni
11. “Bozor” va “bozor iqtisodiyoti” tushunchalarining o‘zaro farqlanishi.
12. Talab va taklif tushunchasi, ularga ta’sir qiluvchi omillar.
13. Talab va taklif miqdorlarining mos kelishi.
14. Ishlab chiqarish omillari va infratuzilmasi
15. Iste’molchi xatti-harakati nazariyasi.
16. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrining mazmuni
17. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘llari va shakllari.
18. Iqtisodiy islohotlarning mazmuni.
19. O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarning bosqichlari va ularning
20. Tadbirkorlik faoliyatining mazmuni va shakllari
21. Tadbirkorlik kapitalining funksional shakllari
22. Korxonada ishlab chiqarish xarajatlari. Tannarx.
23. Korxonada (firma) ning pul tushumlari va foydasi
24. Raqobatning mohiyati, turlari va shakllari
25. Narxning mazmuni va turlari, bozor iqtisodiyotidagi o‘rni va funksiyalari.
26. Monopoliyalarning turlari: sofmonopoliya, oligopoliya, monopsoniya.
27. Ish haqining iqtisodiy mazmuni, mohiyati, vazifalari va shakllanish mexanizmlari.
28. Nominal va real ish haqi, ularning mazmuni, farqlari va iqtisodiy ahamiyati.
29. Ish haqining tabaqalanishi, sabablari, shakllari va iqtisodiy oqibatlari.
30. Davlatning ish haqi siyosati, madsadlari, tamoyillari va amalga oshirish mexanizmlari.
31. Qishloq xo‘jaligida boshqaruv jarayoni va vazifalari
32. Qishloq xo‘jaligida rejalashtirish jarayonini boshqarish
33. Ishsizlik tushunchasi va turlari: friksion, strukturaviy, siklik ishsizlik.
34. Qishloq xo‘jaligida motivatsiya
35. Qishloq xo‘jaligida muvofiqlashtirish
36. Boshqarishning nazorat funksiyasi
37. Qishloq xo‘jaligi boshqaruvdagi axborotlar va kommunikatsiya
38. Ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalari

39. Tashkilotlarning ichki muhiti va unga ta'sir etuvchi omillar
40. Tashkilotlarning tashqi muhiti va unga ta'sir etuvchi omillar
41. Mahsulotni yetkazib berish texnologiyasi va uni boshqarish
42. Qishloq xo'jaligini moliyalashtirish tushunchasi va moliyaviy munosabatlar
43. Qishloq xo'jalik mahsulotlari tannarxini rejalashtirish
44. Mamlakatimizda boshqaruvning rivojlanishi
45. Kreditning mazmuni, kredit munosabatlari
46. Kredit turlari, kredit imtiyozlari va muddatlari
47. Tadbirkorni qo'llab quvvatlash va berilgan imtiyozlardan samarali foydalanish orqali agrobiznesni tashkil etishni rivojlantirish
48. Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va joylashtirish tushunchalari, ixtisoslashtirishda ishlab chiqarishning afzalliklari
49. Mehnat resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish

Makroiqtisodiyot

50. Suvdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi va uni oshirish yullari.
51. Suvdan foydalanishda havza tamoyilining afzalliklari va ahamiyati.
52. Sug'orish tizimi va suvni tejoyvchi yangi sug'orish texnologiyalaridan foydalanish.
53. Sug'orish tizimlarida va xo'jaliklarda suvdan rejali foydalanish.
54. Xo'jaliklarda suvdan foydalanish samaradorligi.
55. Resurslar potentsiali va qishloq xo'jaligida resurslardan oqilona foydalanish.
56. Ishlab chiqarish omillarining mohiyati nima
57. Iqtisodiyotni rivojlantirishda resurslarning roli qanday
58. Resurslar qiymatini hisoblashda yoki baholashda qanday usul ma'qul
59. Resurslar potentsialining samaradorligi qanday aniqlanadi
60. Mehnat resurslari deb nimaga aytiladi
61. Ishchi kuchi, uning bandligi va ishsizlik
62. Mehnat va uning xususiyatlari
63. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslarining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat
64. Mavsumiylik nima va u qanday bartaraf etiladi
65. Mehnat unumdorligining asosiy ko'rsatkichlari
66. Qishloq xo'jalik mahsulotlarida mehnat sig'imini aniqlash usullari
67. Qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini oshirish yo'llari
68. Mehnat resurslari va mehnat unumdorligining qishloq xo'jaligidagi ahamiyati.
69. Mehnat bozori va uning vazifasi.
70. Mehnat resurslari va ishchi kuchi.
71. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini ifodalovchi kursatkichlar, ularni aniqlash tartibi.
72. Qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi va uni oshirish yo'llari.
73. Qishloq xo'jaligida mehnat motivasiyasi va xodimlarni moddiy rag'batlantirish tizimi.
74. Iste'mol sarflari, jamg'arma va investitsiyalar
75. Iqtisodiy taraqqiyot, iqtisodiy o'sish va milliy boylik
76. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkning qanday shakllari mavjud
77. Mulkn xususiyashtirish tartiblari qanday

78. Mulknı davlat tasarrufidan chıqarish qanday amalga oshiriladi
79. Xo'jalik yuritish shakllari nima
80. Ijtimoiy-iqtisodiy tarkib deganda nimani tushunasiz
81. Fermer xo'jaliklari qanday tartıbda tuziladi
82. Fermer xo'jaligini shirkat, dehqon va boshqa qishloq xo'jalik korxonalaridan farqi nimada
83. Fermer xo'jaligi namunaviy ustavini mazmunini ayting.
84. Fermer xo'jaligi qanday yerlarda tashkil etiladi
85. Fermer xo'jaliklarini eng minimum o'lchamlarini ayting.
86. Qanday yerlarda fermer xujaliklari tashkil etilmaydi
87. Fermer xo'jaligi qanday tartıbda solıqqa tortiladi
88. Fermer xo'jaligining yer maydonini maqbullashtirish deganda nima tushuniladi
89. Mehnat bozori va korxonalarda mehnat resurslaridan foydalanish
90. Kapital qo'yilmalar va kapital bozori
91. Davlatning bozordagi roli: solıqlar va subsidiyalar ta'siri
92. Iqtisodiy resurslar taqsimoti va samaradorlik
93. Raqobatlashmagan bozor sharoitida monopol narx belgilash va bozor hokimiyati.
94. Dehqon xo'jaligining iqtisodiyotdagi roli va ahamiyati.
95. Korxonada ishlab chıqarish xarajatlari va uni kamaytirish yo'llari.
96. Marketing tushunchasining mohiyati, ahamiyati va tadbirkorlik faoliyatidagi o'rni

Marketing

97. Bozor turlari va uning tuzilishi. Bozor infratuzilmasi va uning unsurlari.
98. Tashkiliy nuqtai nazardan bozor turlari.
99. Bozor tushunchasi va tartibli bozor turlari.
100. Marketing tushunchasi, obykti va subyektlari.
101. Marketing tadqiqoti bosqıchlari va tadqiqot rejasi.
102. Marketingni tarkibiy tuzilishi va uni boshqarishni tashkil etish.
103. Marketing nazariyasi va uning evolyutsiyasi.
104. Ishlab chıqarishni takomillashtirish konsepsiyasi mohiyati.
105. Iste'mol konsepsiyasi mohiyati.
106. Tovarni takomillashtirish konsepsiyasi.
107. Ijtimoiy etik marketing konsepsiyasi.
108. Marketing muhiti komponentlari.
109. Marketingda siyosiy va madaniy muhit.
110. Iste'mol bozorlari va xaridor xulq atvorini o'rganish.
111. A. Maslouning ehtiyojlar piramidasi.
112. Iste'molchi xulq atvori modeli.
113. Iste'molchi xulq atvoriga ta'sir etuvchi omillar.
114. Iste'molchini tadqiq etish bosqıchlari.
115. Iste'molchini o'rganishning RFM tahlilining mohiyati.
116. Iste'molchini o'rganishning ABC usuli.
117. Iste'molchini o'rganishning XYZ usulining mohiyati.
118. Marketingda axborot tizimi elementlari.
119. Hosil bo'lish bosqıchlariga ko'ra marketing axboroti turlari.

120. Tovarlarining iste'mol qiymatiga ko'ra turlari.
121. Tovarlarining o'zaro bog'langanligiga ko'ra turlari.
122. Raqobatning mohiyati, turlari va shakllari
123. Suv bilan ta'minlanish va undan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning iqtisodiy – statistik tahlili

Iqtisodiy tahlil

124. O'simlikchilik statistikasining vazifalari, ekin maydonlari statistikasi samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning iqtisodiy – statistik tahlili
125. Ko'p yillik mevali dov-daraxtlar statistikasi, samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning iqtisodiy – statistik tahlili
126. Agrotexnik chora – tadbirlar statistikasi, samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning iqtisodiy – statistik tahlili
127. Ekinlar hosili va hosildorligi ko'rsatkichlari va ularning iqtisodiy – statistik tahlili
128. Chorvachilik statistikasining vazifalari, chorvachilikning ahvoli va rivojlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi
129. Chorva mollari soni ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari, chorva mollarini takror ishlab chiqarish ko'rsatkichlari statistik tahlili
130. Chorva mahsuloti va mahsuldorligi ko'rsatkichlarining mazmuni va ularni hisoblash usullari
131. Chorva mahsuloti va mahsuldorligi ko'rsatkichlarining statistik tahlili
132. Ozuqa bilan ta'minlanish va undan foydalanish ko'rsatkichlari statistik tahlili
133. Asosiy fondlar statistikasi, asosiy fondlarning holati va harakatini ifodalovchi ko'rsatkichlar statistik tahlili
134. Asosiy fondlar bilan xo'jalikning ta'minlanish va ulardan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlari statistik tahlili
135. Aylanma fondlar statistikasi, aylanma fondlarning holati va harakatini ifodalovchi ko'rsatkichlarning statistik tahlili
136. Qishloq xo'jaligi mashinalari va ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash statistikasi, qishloq xo'jalik mashinalarining guruhlanishi va energetik resurslar bilan ta'minlanish ko'rsatkichlari statistik tahlili
137. Qishloq xo'jaligi mashinalari soni va ulardan foydalanish ko'rsatkichlarining statistik tahlili
138. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiyalashtirish ko'rsatkichlari iqtisodiy – statistik tahlili
139. Mehnat resurslari statistikasi, mehnat resurslari soni va harakatini ifodalovchi ko'rsatkichlarning statistik tahlili
140. Mehnat resurslaridan foydalanishni ifodalovchi ko'rsatkichlarning statistik tahlili
141. Mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari, mehnat unumdorligining iqtisodiy – statistik tahlili
142. Mehnat haqini ifodalovchi ko'rsatkichlarning statistik tahlili
143. Ishlab chiqarish xarajatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlarning statistik tahlili
144. Mahsulot tannarxi va uning ko'rsatkichlari iqtisodiy – statistik tahlili

145. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari statistikasi to'g'risida tushuncha va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ifodalovchi ko'rsatkichlarning statistik tahlili
146. Qishloq xo'jaligi yalpi ishlab chiqarishini ifodalovchi ko'rsatkichlarning statistik tahlili
147. Sotilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ifodalovchi ko'rsatkichlarning statistik tahlili
148. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini baholash usullarining statistik tahlili
149. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi dinamikasining statistik tahlili
150. Moliyaviy natijalar va ularni ifodalovchi ko'rsatkichlarning statistik tahlili
151. Rentabellik ko'rsatkichlarning iqtisodiy – statistik tahlili
152. O'zbekiston Respublikasi yer fondini tarkibi va strukturasi statistika dinamik tahlili
153. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishga mo'ljallangan yaroqli yerlar tarkibining statistik dinamik tahlili
154. Yerdan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarning statistik tahlili
155. Chorva mollarini takror ishlab chiqarishni ifodalovchi ko'rsatkichlarning statistik tahlili
156. Zootexnik chora – tadbirlar ko'rsatkichlarning statistik tahlili
157. Chorvachilik yalpi, sof va tovar mahsulotlari ko'rsatkichlarning statistik tahlili
158. Yem – xashak statistikasining vazifalari, xo'jalikning yem – xashak bilan ta'minlanish ko'rsatkichlari
159. Qishloq xo'jaligi faoliyatini ifodalovchi qiymat ko'rsatkichlari tizimi va ularning iqtisodiy – statistik tahlili
160. Qishloq xo'jaligida oraliq iste'mol, yalpi va sof qo'shilgan qiymat ko'rsatkichlarining statistik tahlili
161. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini baholash usullari va xarajatlar o'rtacha indekslarining hisoblanishi
162. Qishloq xo'jaligida yalpi foyda va uning statistik tahlili
163. Qishloq xo'jaligining iqtisodiy samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularning statistik tahlili
164. Iqtisodiy tahlilning mazmuni, predmeti, vazifalari, tamoyillari hamda iqtisodiy fanlar tizimida tutgan o'ri.
165. Iqtisodiy tahlilning metodologik asoslari.
166. Iqtisodiy tahlilning metodi va usullarini tasniflanishi.
167. "Iqtisodiy xavfsizlik" maqsadi, vazifalari va o'rganish usullari, boshqa iqtisodiy fanlar ichida tutgan o'rin tutadi.

Iqtisodiy xavfsizlik

168. Agrar siyosatni amalga oshirishning vosita va mexanizmlari
169. Rivojlangan mamlakatlar agrar siyosatini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari, vosita va mexanizmlari
170. O'zbekiston agrar siyosati, uning maqsad va vazifalari, amalga oshirishning vosita va mexanizmlari
171. O'zbekiston Respublikasida agrar sohada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va yo'nalishlari

172. Mamlakat iqtisodiyotida agrar islohotlarning zarurligi, maqsad va vazifalari
173. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan agrar islohotlar bilan MDH mamlakatlari o'rtasidagi agrar islohotlarning o'ziga xos xususiyatlari
174. Agrar iqtisodiyotda institusional siyosat maqsad va vazifalari, vosita va unsurlari
175. O'zbekiston Respublikasida yer bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga solish tizimi, mulkchilik yangi shakllari
176. Agrar siyosat va oziq-ovqat sohasida modernizatsiya, integratsiya, diversifikatsiya jarayonlari nazariyalari.
177. Agrar siyosatning mazmuni va maqsadi, amalga oshirish vositalari va unsurlari, ta'sir ko'rsatuvchi omillar.
178. Qishloq xo'jaligida innovatsiya, innovatsiyon faoliyat, innovatsiya jarayoni, innovatsiya hayotiy sikli
179. Qishloq xo'jaligida innovasiyalar, ularning turkumlanishi, innovatsiyaviy jarayonni boshqarish, innovatsiyaviy faollikni oshirish istiqbollari
180. Qishloq xo'jaligida innovatsiyon faoliyat subyektlari, innovatsiyaviy jarayon bosqichlari, innovatsiyalar transferti
181. Qishloq xo'jaligida innovasiyalar transfertining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi
182. Agrar iqtisodiyotda moliyaviy va soliq siyosatining mazmuni va maqsadi, uni amalga oshirishning vositalari va unsurlari
183. Qishloq xo'jaligi korxonalarini kreditlash xususiyatlari hamda muammolari.
184. Agrar bozorlarning o'rni, tarkibi va vazifalari, ularni tartibga solish vositalari
185. Oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasi, oziq-ovqat xavfsizligiga erishish maqsad va vazifalari, baholash tamoyillari
186. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda davlatning iqtisodiy roli
187. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning mezonlari va parametrlari
188. Oziq-ovqat xavfsizligini baholash darajalari, ko'rsatkichlari va koeffitsiyentlari
189. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning iqtisodiy, ijtimoiy, innovatsion, siyosiy omillari
190. Qishloq joylarini rivojlantirish va diversifikasiyalash siyosati, qishloq joylarini barqaror rivojlantirish yo'nalishlari va ko'rsatkichlari.
191. Qishloq joylarida infratuzilmani rivojlantirish dasturi, atrof-muhit va ekologik siyosatning yo'nalishlari.
192. Oziq-ovqat xavfsizligi va mahsulotlari bozorlari barqarorligi talablari, oziq-ovqat xavfsizligini oldindan bashoratlash.
193. O'zbekiston oziq-ovqat xavfsizligiga o'rtacha va uzoq muddatli istiqbolda tahdidlar va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash masalalari.
194. Jahon mamlakatlarida oziq-ovqat xavfsizligi masalasi, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda xalqaro tajribalar.
195. Agrar va oziq-ovqat sohasida xalqaro savdo to'g'risidagi turli xil nazariyalar.
196. Jahon mamlakatlarda oziq-ovqat savdosi siyosati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari xalqaro savdosining erkinlashtirilishi
197. O'zbekistonning jahon savdo tashkilotiga a'zolariga kirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar, muammo va afzalliklar

198. Oziq-ovqat xavfsizligida xalqaro tashkilotlarning tutgan o'rnini, BMTning jahon oziq-ovqat dasturi
199. Butunjahon savdo tashkiloti: unga a'zo bo'lish afzalliklari va vujudga keladigan muammolar
200. Qishloq xo'jaligi va oziq ovqat bo'yicha xalqaro tashkiloti (FAO) ning jahonda oziq-ovqat xavfsizligi ko'rsatkichlari
201. Oziq-ovqat xavfsizligida qurg'oqchil hududlarda qishloq xo'jaligi tadqiqodlari bo'yicha xalqaro markaz (ICARDA) tashkilotining faoliyati
202. Davlatning agrar siyosati, uning maqsadlari va vazifalari, agrar siyosatni amalga oshirishning sohasi va rivojlantirish yo'nalishlari.
203. Markaziy Osiyo davlatlari agrar siyosatining o'ziga xos xususiyatlari, hozirgi holati, rivojlantirish yo'nalishlari va istiqbollari
204. AQSh agrar siyosatining o'ziga xos xususiyatlari, hozirgi holati, rivojlantirish yo'nalishlari va istiqbollari
205. Yaponiya agrar siyosatining o'ziga xos xususiyatlari, hozirgi holati, rivojlantirish yo'nalishlari va istiqbollari
206. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari agrar siyosatining o'ziga xos xususiyatlari, hozirgi holati, rivojlantirish yo'nalishlari va istiqbollari
207. Xitoy davlati agrar siyosatining o'ziga xos xususiyatlari, hozirgi holati, rivojlantirish yo'nalishlari va istiqbollari
208. Germaniya agrar siyosatining o'ziga xos xususiyatlari, hozirgi holati, rivojlantirish yo'nalishlari va istiqbollari
209. Afrika qit'asi davlatlari agrar siyosatining o'ziga xos xususiyatlari, hozirgi holati, rivojlantirish yo'nalishlari va istiqbollari
210. O'zbekiston Respublikasi agrar siyosatining o'ziga xos xususiyatlari, hozirgi holati, rivojlantirish yo'nalishlari va istiqbollari
211. Agrar siyosatning tarixiy, huquqiy va institusional asoslari, agrar siyosatni amalga oshirishning vosita va mexanizmlari
212. O'zbekistonda agrar islohotlarning huquqiy asoslari va amalga oshirishning asosiy mexanizmlari
213. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda kreditning roli va ahamiyati, zarurligi
214. Logistik tizimni shakllanishida qanday tizimli tamoyillarga yondashiladi

Agrologistika

215. Logistik jarayonlarning optimallik mezoni nima.
216. Logistikada qanday bashoratlash usullari mavjud
217. Logistik rejalashtirishga qanday omillar ta'sir etadi
218. Logistik tizimda ekspertlarni tanlashda qanday omillar hisobga olinadi
219. Moddiy va moliyaviy oqimlar, ularni tashkil qilishda qanday omillardan foydalaniladi
220. Tashqi iqtisodiy xavfsizlik va mamlakat raqobatbardoshligini ta'minlash
221. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda innovatsiyalar omili.
222. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash
223. Logistik strategiya va uning turlarini ayting.
224. Logistikada prognozlashning mohiyati, ahamiyati qanday
225. Logistikada rejalashtirishning usullari qanday
226. Transport logistikasining mohiyati va vazifalari nimalardan iborat

227. Transport tizimi turlari va uning texnik - iqtisodiy xususiyatlarini ayting.
228. Transport turlarining moddiy-texnika bazasi nima
229. Avtotransport xizmatlari deb nimaga aytiladi
230. Mahsulotlarni yetkazib berish tizimi qanday boshqariladi
231. Transportning xalq xo'jaligidagi roli va ahamiyatini tushuntiring.
232. Yuk tashishda qanday asosiy va yordamchi jarayonlar bajariladi
233. Qatnov deb nimaga aytiladi
234. «Yagona transport tizimi» tushunchasi nimani ifodalaydi
235. Avtomobil transporti ishini yaxshilash uchun qanday tadbirlar amalga oshirilishi kerak.
236. Zaxiralarni boshqarish tizimida xarajatlarning turlarini sanang.
237. Moddiy zaxiralarni tashkil etish sabalarini ayting.
238. «Maksimum-minimum» tizimining mohiyatini aytib bering.
239. Zaxiralarni boshqarish strategiyasi nima.
240. Moddiy oqimlarni tashkil etish bilan bog'liq xarajatlarni sanang.
241. Xarajatlarni aniqlashni qanday usullari mavjud.
242. Logistik jarayonlarning optimallik mezoni nima.
243. Logistik tizimni shakllanishida qanday tizimli tamoyillarga yondashiladi.
244. Logistika qanday bashoratlash usullari mavjud.
245. Logistik rejalashtirishga qanday omillar ta'sir etadi.
246. Logistik tizimda ekspertlarni tanlashda qanday omillar hisobga olinadi.
247. Moddiy va moliyaviy oqimlarni tashkil qilishda qanday omillardan foydalaniladi.
248. Logistik tamoyillarning maqsadi haqida nimalarni bilasiz.
249. Logistika va savdoni tashkil qilish uchun qanday omillar ta'sir ko'rsatadi.
250. Tovar harakati bo'g'inlarida qanday logistika mavjud.

Innovatsion iqtisodiyot

251. Innovatsiya atamasini ta'riflab bering.
252. Innovatsiya-mahsulotlar va innovatsion-jarayonlar o'rtasidagi farqlar nimalardan iborat.
253. Innovatsiyalarga xos bo'lgan asosiy jihatlarni tushuntirib bering.
254. Yangiliklarning innovatsiyalarga aylanish jarayonidagi asosiy bosqichlarni sharhlab bering.
255. Innovatsion iqtisodiyotni o'rganish bo'yicha qanday usul va yondashuvlar mavjud.
256. Innovatsion jarayonning mohiyati. Innovatsion jarayonning ikki asosiy bosqichini tavsiflab bering .
257. Diffuziya (tarqalish)ning mohiyatini tushuntiring
258. Innovatsion jarayonning —bozor talabi bosiml modelining gipotezasining mohiyati, uning farqlovchi jihatlarni izohlang
259. Innovatsion muhitning mohiyati nimadan iborat.
260. Innovatsion salohiyat tushunchasiga oydinlik kiriting, uning tarkibiy qismlarining xususiyatlarini ochib bering.
261. Milliy innovatsion tizimni tushuntiring, uning asosiy tashqil etuvchilarini sanab bering.

262. Texnoparkni ta'riflang. Texnopark o'z rezidentlariga qanday xizmatlarni taqdim etadi
263. Innovatsion kompaniyaning hayotiylik sikli bosqichlarini ko'rsatib bering va hayotiylik siklining har bir bosqichda innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning maqbul bo'lgan manbalarini aytib bering.
264. Innovatsion faoliyatni biznes-farishtalar yordamida moliya-lashtirish va venchurli moliyalashtirishning umumiy va bir-biridan farqlovchi jihatlarini sanab o'ting.
265. Kompaniyaning moliyaviy resurslari tarkibida venchurli moliyalashtirishning o'rni tavsiflab bering.
266. O'zbekistonda venchur biznesini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan asosiy sabablar nimalardan iborat.
267. Venchurli moliyalashtirishning rivojlangan mamlakatlar tajribasi va ularning bir-biridan farqlovchi jihatlari haqida gapirib bering
268. Innovatsion kompaniya korporativ madaniyatining xususiyatlari nimalardan iborat.
269. Qaysi omillar innovatsion biznesda inson resurslarining samaradorligini belgilab beradi.
270. Innovatsion kompaniyaning korporativ madaniyati uchun qaysi qadriyatlar xos.
271. Innovatsion biznesning o'ziga xosligi kompaniyaning missiyasi va shiorini shakllantirishda qay tarzda namoyon bo'ladi.
272. O'z innovatsion biznesini yo'lga qo'yuvchi tadbirkor qanday vakolatlarga ega bo'lishi lozim.
273. Innovatsion biznesda xodimlar qaysi mezonlar bo'yicha saralab olinishi kerak.
274. Innovatsion kompaniyalarda personalni baholash tizimi qay tarzda barpo etilishi kerak.
275. . Innovatsiyalarni yaratuvchi va ularni tijoratlantiruvchi xodimlarni rag'batlantirish va ularda ishtiyoq uyg'otishning o'ziga xosligi nimalardan iborat.
276. Innovatsion startap jamoasi uchun rolli tuzilmaning o'rni va ahamiyati nimada.
277. Jamoalarning asosiy tiplarini sanab bering va ularning o'ziga xos jihatlarini yoritib bering.

Agrosanoat tarmoqlari iqtisodiyoti

278. Agrosanoat majmuasining mohiyati, zaruriyati, maqsadi, vazifalari, tarkibiy tuzilishi
279. Qishloq xo'jaligining rivojlanishida agroklasterning o'rni va ahamiyati
280. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning umumiy masalalari
281. Qishloq xo'jaligida yer resurslarining ahamiyati, o'ziga xos xususiyatlari, hozirgi holati, samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi
282. Mehnat bozori, uning maqsadi, tashkil etilish shakllari va vazifalari
283. Moddiy-texnika resurslaridan foydalanish darajasi va samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi

284. Infratuzilmaning mohiyati, ahamiyati, xususiyatlari, turlari
285. Qishloq xo'jalik mahsulotlari tannarxi tushunchasi, tarkibi, turlari hamda uni pasaytirish chora-tadbirlari
286. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning zaruriyati, intensivlashtirish nazariyasi, intensiv va ekstensiv rivojlanishning mohiyati
287. Qishloq xo'jaligida investitsion loyihalar, ularni moliyalashtirishga yo'naltirilgan biznes rejalarni shakllantirish tartibi
288. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni joylashtirishning mohiyati, omillari, tamoyillari, tarmoqlari
289. Qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarini shakllantirishning zarurligi va ahamiyati, amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy bosqichlari va yo'nalishlari.
290. Qishloq xo'jaligida raqamli iqtisodiyotni shakllantirishning mohiyati va ahamiyati, rivojlantirish istiqbollari
291. Iqtisodiy samarador tushunchasi, uning mohiyati va ahamiyati, tavsiflovchi ko'rsatkichlari va ularni aniqlash tartibi.
292. Qishloq xo'jaligi yalpi va tovar mahsuloti to'g'risida tushuncha, ularni aniqlash tartibi, yalpi mahsulotni sotish va taqsimlash yo'nalishlari.
293. O'zbekiston agrar siyosati, uning maqsad va vazifalari, amalga oshirishning vosita va mexanizmlari
294. Agrar siyosatni amalga oshirishning vosita va mexanizmlari
295. Rivojlangan mamlakatlar agrar siyosatini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari, vosita va mexanizmlari
296. O'zbekiston agrar siyosati, uning maqsad va vazifalari, amalga oshirishning vosita va mexanizmlari
297. O'zbekiston Respublikasida agrar sohada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va yo'nalishlari
298. Agrar iqtisodiyotda institusional siyosat maqsad va vazifalari, vosita va unsurlari
299. Agrar iqtisodiyotda moliyaviy va soliq siyosatining mazmuni va maqsadi, uni amalga oshirishning vositalari va unsurlari
300. Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligi tarmog'ida qo'llanilayotgan innovatsiyalar, ularning turlari